

Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati

Shodiyaxon Nodirbek-qizi Zokirova

Sarvinoz Zokirjonova

Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova

Andijon davlati chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kaykovus qalamiga mansub bo'lgan Qobusnoma asari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi hamda Sharq mumtoz adabiyotida tutgan o'rni yoritib beriladi. "Qobusnoma"ning didaktik-nasihatnoma yo'nalishidagi muhim manba sifatidagi ahamiyati ochib berilib, unda ilgari surilgan axloqiy-me'yoriy qarashlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, hadis, raiyat, rutba, valilik, "Nasihatnoma", aql, rostlik, juvonmard, pand, axloqiy tarbiya, pasha

The educational significance of Kaykovus's "Qobusnoma"

Shodiyakhon Nodirbek-kizi Zakirova

Sarvinoz Zakirjonova

Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the Qobusnoma by Kaykovus from a scientific and theoretical perspective. The history of the work's creation and its place in the classical literature of the East are highlighted. The significance of "Qobusnoma" as an important source in the direction of didactic-advice is revealed, and the moral and normative views put forward in it are studied.

Keywords: Holy Quran, hadith, raiyat, rank, guardianship, "Nasihatnama", intellect, truth, youth, wisdom, moral education, pasha

«Ey farzand, raaiyatga ham shundoq mehribonlik ko'rguzgil, toki mamlakat obod bo'lgay, nedinki, podshoh oftobdekdur, oftob birovga soya solib, yana birovdan yuz o'g'urmas... Aslo zulmni ko'nglingga kelturmagilki, odil podshohning xonadoni ko'p yillar boyiq qolur va zolimning xonumoni tezda barbod va nobud bo'lur, nedinki, adl obodonlik nishonasidur va zulm vayronalik alomatisidur. Hukumolar debdurlarki, odil podshoh olam xurramligining sarchashmasidur, zolim podshoh jahon xarobaligining to'fonidur»[1].

Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelganlar. Sharqda «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo'lgan hindlarning «Panchatantra» («Besh hikmat»), «To'tinoma» nomi bilan shuhrat qozongan «Shukaspata» («Totining yetmish besh hikoyasi»), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt-saodatga yo'llovchi bilim»), Muslihiddin Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Nosiriddin Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») va o'nlab durdona asarlar asrlar mobaynida farzandlar tarbiyasida dastur vazifasini o'tab kelgan.

Kaykovus qalamiga mansub «Qobusnoma» asari Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhur. Mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar kitobning yanada jozibali, o'qishli bo'lishini ta'minlagan[1].

Kaykovus va uning «Qobusnoma» asari Sharq pedagogikasi, axloqshunosligi va davlat boshqaruvi tarixida eng yorqin sahifalardan biri hisoblanadi. Bu shunchaki kitob emas, balki XI asr hayotining ensiklopediyasidir.

Qobus XI asrga oid fors adabiyotining yirik asari bo'lgan, nabirasi Kaykovus tomonidan yozilgan Qobusnomaning asosiy qahramonidir[11].

Unsur al-Maoliy (Kaykovus) (1021(Balx) - 1098(G'azna)) - fors yozuvchisi. Unsuriy (taxallusi; asl ism-sharifi Abdulqosim Hasan ibn Ahmad) (forstojik shoiri, qasidago'y, g'azalnavis va dostonnavis. Ammo bizga qadar shoirning mo'jazgina she'riy to'plami yetib kelgan. Bundan tashqari, Unsuriyning maxsus qasidalar devoni borligi haqida ham ma'lumot mavjud. U. Sharq adabiyotida madh qasidalarining eng mumtoz namunalarini yaratgan san'atkordir.

Unsuriy xalq og'zaki ijodi asarlari hamda Sharqdagi an'anaviy mavzu va timsollar asosida «Vomiq va Uzro», «Xingbut va Surxbut», «Shodbahr va Aynulhayot» singari dostonlar yozgan. Oxirgi ikki masnaviyni Sulton Mahmud G'aznaviy iltimosiga ko'ra Beruniy arab tiliga tarjima qilgan[2].

«Qobusnoma» ham bundan mustasno emas: kitob «Parvardigori olamni tanimoq zikrida», «Payg'ambarlarning xilqati zikrida» boblari bilan boshlanadi.

XI asrning 82-83-yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o'sha davr an'anasi bo'yicha uni bobosi podshoh Shamsul-maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi[1].

Qobusnoma - o'rta asrlar sharq pedagogikasining yirik qomusi bo'lib, unda bola tarbiyasi tizimli ravishda yoritilgan[4]

Kaykovus «Qobusnoma»ni yozishdan asosiy muddao farzandini hayot sinovlaridan ogoh etish ekanligini ta'kidlaydi. U asarning muqaddimasida shunday yozadi: «Bilgilki, men qariganman va keksalik meni o'z domiga olgan... Sening yoshliging meni senga nasihat yozishga undadi»[5].

Kaykovus pedagogikasining o‘zagi - insonning o‘z nasl-nasabi bilan emas, balki shaxsiy fazilatlari bilan yuksalishidir. Muallif: “Agar sening asling oliy bo‘lsa-yu, lekin o‘zingda fazilat bo‘lmasa, odamlar seni hurmat qilmaydi” degan g‘oyani ilgari suradi[6].

«Qobusnoma» asrlar mobaynida G‘arb va Sharq mutafakkirlarining e‘tiborlarini o‘ziga jalb etib kelgan: 1702-1705 yillarda turk tiliga, 1786-1787 yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg‘ur tiliga, 1881 yilda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga hamda XIX asrdayoq ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilindi. 1935 yilda Tehron dorilfununining professori, atoqli adib Said Nafisiy «Qobusnoma»ni Tehronda bosmadan chiqardi[1].

1860 yilda «Qobusnoma» o‘zbek tiliga birinchi marta buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Ogahiy tarjimasining qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida va Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda[1]

1860-yilda "Qobusnoma" 16 yoshli shahzoda Muhammad Rahimxon Feruzning (1844-1910) topshirig‘iga ko‘ra o‘zbek tiliga birinchi marta buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan.

Ogahiyning o‘zi yosh yigitcha Muhammad Rahim haqida gapirib, har qanday o‘yin-kulgini yig‘ishtirib qo‘yib, «kitobxonlikka, ma‘nidonlikka» mashg‘ul bo‘lganini, ushbu «Nasihatnoma»ni shohzodaning topshirig‘i bilan tarjima qilganini mamnuniyat bilan izhor qiladi:

«... ul shahzodayi ozodaning nazari anvori mutolaasiga yetishdi va musaffo xotirig‘a uni turkiy til bilan tarjima qildirmoq tamannosi tushdi. Bu bandai faqir Muhammad Rizo Ogahiy bir kuni ul janob majlisiga borib, duo sharoitini taqdimiga yetkurdim va ul janobning lozimul bashorati bilan ham ul majlisning bir g‘osasida o‘tiridim. Darhol menga necha turli mehribonliklar ko‘rsatib, mazkur “Nasihatnoma”ni ilkinga berib dediki: “Bul nusxani turkiy til bilan tarjima qil, toki turk tavorifining avomi ham bu pandlardan bahra olg‘ay va bizning otimiz, sening so‘zing olam inqiroziga qadar, zamon avroqida boyiq va yodgor qolg‘ay”[3].

“Qobusnoma”da Anushirvoni Odil haqidagi go‘zal rivoyat keltirilib, uning pandlaridan namunalar beriladi. Kitobda Anushirvoni Odilning 33 ta pandi keltirilgan. Bu nasihatlar uzoq umr ko‘rgan va katta hayotiy tajriba sohibi bo‘lgan donishmand bir insonning qalb qo‘ri, aql nuriga yo‘g‘irilgan go‘zal va sermazmun hikmatlardir. Mana, Anushirvoni Odil nima deydi: “Agar o‘z siringni ochilishini istamasang, birovni sirini fosh qilmag‘il”[3].

Sharq mutafakkirlarining boy ma‘naviy merosida so‘z, uni tanlash va so‘zlashish odobi xususida ko‘plab fikrlar berilgan. Shu jumladan, Unsurul - Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yettinchi bobi “Suxandonlik bila baland

martabali bo'ldiq zikrida" bobida keltirib o'tilgan. Kaykovus axloqlilikning birinchi belgisi, suhandonlik deb biladi. U notqlikda rost so'zlash kerakligini alohida ta'kidlaydi: "Kishi suhandon, suhang'o'y... (notiq) bo'lishi kerak. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozongil, tokim biror zarurat yuzasidan yolg'on so'z aytsang qabul qilg'aylar. Har bir desang ham rost degil, lekin yolg'onga o'xshagan demag'ilkim, rostga o'xshagan durug'ga o'xshagan rostdan yaxshidir, ul durug' maqbul bo'lur, ammo ul rost maqbul bo'lmas" [7].

"Qobusnoma" 44 bobdan iborat bo'lib, u inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi:

Muallif bolaga yoshligidan hunar o'rgatishni ota-onaning muqaddas burchi deb biladi. Agar bola podshohzoda bo'lsa ham, u biron bir hunarni mukammal bilishi shart, chunki dunyo ishlari o'zgaruvchan, hunar esa "tugamas boylik"dir[8].

Kaykovus "Inson o'z nasl-nasabi bilan emas, balki hunari va odobi bilan g'ururlanishi kerak", deb hisoblaydi. Asarda ilm olishning ahamiyati quyidagi jumlar bilan ta'riflanadi:

"Bilgilki, bilimsiz kishi mevasiz daraxtga o'xshaydi. Hunarsiz kishi esa jonsiz tanadir."[9].

Diniy-axloqiy boblar: Oллоhni tanish, ota-onani hurmat qilish.

Ijtimoiy boblar: Do'st tanlash, mehmondorchilik odobi, so'zlashish san'ati.

Kasb-hunar boblar: Dehqonchilikdan tortib, vazirlik va podshohlikkacha bo'lgan mas'uliyatlar[10].

Kaykovusning ushbu hikmatiga e'tiborimizni qaratsak:

"Ey farzand, bilg'ilki, avval peshalardin so'z ayturman, peshadin maqsad do'kondorlik ermasdur. Har kishi har ishni qo'liga olsa, ul ishni yaxshi bilsin va uni ko'p varzis bilsin, toki ul ishdin ko'p naf ko'rg'ay. Biroq odam naf va hunarni talab qilur. Pesha bag'oyat ko'pdur, har birin boshqa-boshqa sharh qilmoq mumkin ermasdur va so'z uzolg'usidur. Ilmning sifati uch vajhdandur: yo bir pesha bila bog'lang'on ilm; ilm bila bog'liq pesha; xayr va dalolatga taalluqli odat. Biror pesha bila bog'liq ishlar tabiblik, munajjimlik, muhandislik, massohlik, shoirlik va bularga o'xshash ishlardur. Ilmga taalluqi bor peshalar xunyogarlik, baytorlik, binokorlik, korizkunlik va bulardin tashqari ishlar ham bordur. Bularning har birisida shundoq qoida bordurki, agar sen uning rasmin va tartibin bilmasang, har qancha usta bo'lsang ham ul bobda serrayg'on kishidek bo'lursan, ya'ni taajjublanib turg'aysan.

Aqlga ma'lum bo'lg'on peshani sharh qilmoqqa hojat yo'qdur. Lekin menbilg'onimcha ayturman va har birining tartibin senga bayon qilurman. Bular ikki ishdin tashqari ermasdur: yo bir vaqtda ro'zg'or havodisidin shunday bir vaqt kelurki, zamon hodisalari bila ul peshaga muhtoj bo'lursan. Muhtoj bo'lg'on vaqtda har qaysi peshaning asroridin xabardor bo'lg'oning yaxshidir. Agar peshaga muhtoj

bo'lmasang, ushbu ulug'lig'ingdin o'ltirursan, lekin ulug'larga barcha ilmni bilmak lozimdur..."[1]

Muallifning fikricha, "pesha" (kasb) faqatgina do'konda o'tirib savdo qilish emas. Inson qaysi ishni qo'liga olmasin, uning ustasi bo'lishi shart.

Varzish qilish: Ya'ni tinimsiz mashq qilish, malaka oshirish.

Agar kishi o'z ishini mukammal bilsa va ko'p mehnat qilsa, o'shanda uning foydasini (nafini) ko'radi.

Kaykovus kasb va ilmni uchta katta guruhga ajratadi:

Ilmga asoslangan kasblar: Tabiblik, munajjimlik (astronomiya), muhandislik. Bularni chuqur nazariy bilimsiz egallab bo'lmaydi.

Amaliy mahorat talab qiladigan kasblar: Binokorlik, xunyogarlik (musiqachilik), korizkunlik (suv yo'llari qurish). Bular ko'proq tajriba va qo'l mehnatiga tayanadi.

Ezgulik va odat: Insonning fe'l-atvori va jamiyatdagi tutumi bilan bog'liq jihatlar.

Ya'ni, muallif aytmoqchiki, agar sen bir ishning tartib-qoidasini (nazariyasini) bilmasang, qanchalik usta bo'lma, kutilmagan vaziyatda "serrayg'on" (hayron bo'lib, nima qilishni bilmaydigan) bo'lib qolasan. Hayotda har xil voqealar ("ro'zg'or havodisidin") bo'ladi. Bir kun kelib o'sha hunarga muhtoj bo'lib qolsang, uning sirlarini bilganing senga najot bo'ladi.

Agar sening darajang ulug' bo'lsa va bu hunarni amalda bajarishga ehtiyojning bo'lmasa ham, bilishing shart. Chunki barcha sohalardan xabardor bo'lish - rahbar va ulug' insonlarning sifatidir. Bilim insonni har qanday holatda ham aziz qiladi.

Kaykovus "Qobusnoma" asarining alohida bir bobini aynan do'st tanlash va do'stlik odoblariga bag'ishlagan. Uning fikricha, insonning kimligi uning do'stiga qarab bilinadi.

Kaykovus do'stlarni ikki toifaga ajratadi:

Haqiqiy do'stlar: Bular "jon do'stlari" bo'lib, boshingizga ish tushganda ham, shodlikda ham yoningizda turadi.

Naf do'stlari: Bular "non do'stlari" yoki "dasturxon do'stlari". Ular sizning boyligingiz yoki mavqeingiz uchun atrofingizda o'ralashadi. Muallif o'g'liga do'st tanlashda quyidagi sifatlarga e'tibor berishni tayinlaydi:

Oqillik (Aql): "Nodon do'stdan aqli dushman yaxshi", deydi Kaykovus. Chunki nodon do'st senga yaxshilik qilaman deb, bilmasdan zarar yetkazib qo'yishi mumkin.

Asl-nasab va tarbiya: Yaxshi tarbiya ko'rgan, oilasi aslzoda (ma'naviy jihatdan) bo'lgan kishilar bilan do'stlashishni maslahat beradi.

Vafodorlik: Sinovlardan o'tgan, og'ir kunda tashlab ketmaydigan kishini qadrlash kerak.

Saxovat: Baxil odam bilan do'st bo'lishdan qaytaradi, chunki baxillik insonni sotqinlikka yetaklashi mumkin[12].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Qobusnoma" shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki shaxsning jamiyatda munosib o'rin topishi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi va insoniy munosabatlarda muvozanatni saqlashi uchun xizmat qiluvchi mukammal hayotiy dasturdir. U bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Jumladan, A.Y.Krimskiy, Vasiliy Bartold, Yevgeniy Bertels kabi sharqshunos olimlar asarni o'rganish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan[13].

"Qobusnoma" shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki shaxsning jamiyatda munosib o'rin topishi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi va insoniy munosabatlarda muvozanatni saqlashi uchun xizmat qiluvchi mukammal hayotiy dasturdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Dolimov. Kaykovus Qobusnoma. T: "TPK", 1994. 3-5-betlar.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.

11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариёв, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.